

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK:31:631(575.1)

JURAYEV SHOHRUH MOYLI O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI
ISHLAB CHIQARISHNI IQTISODIY-STATISTIK O‘RGANISH

70410801– “Statistika” mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar:

dots. B. Akbarova

TOSHKENT-2025


**Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiy
statistika” kafedrasida bajarilgan**

Ilmiy rahbar



i.f.f.d., dots. B. Akbarova


Kafedra mudiri



i.f.f.d., prof. B. Utanov

Kechki ta'lim va magistratura

fakulteti dekani



i.f.d., prof. J.I. Karimqulov

Men, Turayev Shohruh Moyli o'g'li (F.I.Sh)
ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati
yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik
dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga
asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIY STATISTIKA” KAFEDRASI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHLARINING DASTLABKI HIMOYA BAYONNOMASI

2025 yil 15 aprel

Toshkent shahri

Raisi: Prof. Utanov Bunyod Quvondiqovich

Kotibi: Dots. Raxmataliev Muzaffar Eshdavlatovich

**A`zolar:** Tashmatov Zayirkul Xudayberganovich, Ayubjonov Abbos Hosilovich, Nabixo`jaev Abbos Abduppataxovich, Akbarova Barno Shuxratovna, Sayfullaev Siddik Nosirovich

KUN TARTIBI:

70410801 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi 2-kurs, MST-01 guruhi va S-1/23 magistrlarining magistrlik dissertatsiya ishlarini monitoring qilish bo'yicha magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasi

Rais: Kafedraning magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasida professor-o'qituvchilar va magistrantlar qatnashmoqda. Ruxsatingiz bilan "Iqtisodiy statistika" kafedrasining magistrlik dissertatsiya ishlarining dastlabki himoyasini ochiq deb e'lon qilaman.

Bugungi masala 70410701- Statistika (Tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha MST-01 guruhi magistranti Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'lining "Milliy va xalqaro mehnat bozorining statistik tahlili (O'zbekiston va Qozog'iston respublikalari misolida)", Yo'ldoshev Nozimbek Ma'rufjon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari eksportini statistik tadqiq etish", Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'lining "O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini statistik tahlili" va Jurayev Shohruh Moyli o'g'lining "O'zbekiston chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik tadqiqi" hamda S-1/23 guruhi magistranti Ochilov Ozodbek Odil o'g'lining "Bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini statistik tahlili (Respublika tijorat banklari misolida)" mavzusida magistr akademik darajasini olish uchun olib borilgan magistrlik dissertatsiya ishining dastlabki himoyasining muhokamasi.

Rais: Muhokamani o'tkazish haqida qanday takliflar bor? Kun tartibiga qo'yilgan masala bo'yicha avvalo, magistrarning ma'ruzasini eshitib, keyin muhokamaga o'tsak. Demak, ma'ruza uchun so'z magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'liga beriladi.

Eshitildi: Magistr Odilxonov Umarxon Ayubxon o'g'li: Hurmatli seminar

Annotatsiya

Dissertatsiyaning maqsadi – O'zbekistonda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni iqtisodiy statistik jihatdan o'rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda mamlakatdagi chorvachilik sektori rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, shu jumladan go'sht, sut, tuxum va boshqa mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, eksporti, importi va narxlarining o'zgarishlari tahlil qilinadi. Dissertatsiya doirasida trend tahlili asosida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishining o'zgarish dinamikasi va istiqbollari o'rganilib, bu o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi iqtisodiy omillar chuqur tahlil qilinadi.

Trend tahlili yordamida so'nggi yillardagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishidagi o'zgarishlar, o'sish sur'ati va qisqa muddatli prognozlar ishlab chiqiladi. Ushbu tahlil asosida iqtisodiy o'zgarishlar va davlat siyosatining ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, chorvachilik sohasidagi o'zgarishlar va ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik model tuzilib, u iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini prognozlashga imkon yaratadi.

Modelda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishining o'sishiga ta'sir qiluvchi asosiy faktorlar (masalan, davlat tomonidan qo'llanilayotgan subvensiyalar, texnologik yangilanishlar, iqlim sharoitlari, import va eksport hajmlari, ichki va tashqi bozor talab va taklifi) hisobga olinadi. Dissertatsiya, chorvachilik sektorida iqtisodiy tahlilni chuqurlashtirish va mahsulot ishlab chiqarishining istiqbollari haqida aniq prognozlar berish orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

***Kalit so'zlar:** Chorvachilik mahsulotlari, trend tahlili, ishlab chiqarish dinamikasi, texnologik yangilanishlar, mahsulot ishlab chiqarish prognozi, statistik metodlar, o'sish sur'ati*

Abstract

The purpose of this dissertation is to study and analyze the economic statistics of livestock product production in Uzbekistan. The research focuses on the main economic indicators of the country's livestock sector, including the production, export, import, and price changes of products such as meat, milk, eggs, and other related goods. The dissertation also explores the economic factors affecting changes in livestock production, including the role of state policies and the significance of the export-import balance.

In addition, the dissertation employs trend analysis to examine the dynamics and future prospects of livestock product production in recent years. The trend analysis helps to evaluate the growth rates and short-term forecasts of livestock product production, providing insights into the impact of economic changes and government policies. Based on statistical data from the livestock sector, an econometric model is developed to forecast changes in economic indicators.

The model incorporates key factors influencing livestock production growth, such as government subsidies, technological advancements, climatic conditions, import and export volumes, and domestic and international market demand and supply. The dissertation aims to deepen the economic analysis of the livestock sector and offer practical recommendations based on clear forecasts of production trends and future developments.

Key words: *Livestock products, trend analysis, production dynamics, technological advancements, production forecasting, growth rate of production*

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHORVACHILIK SOHASI – STATISTIK O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA...	7
1.1	Chorvachilik sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini statistik o‘rganish	7
1.2	<i>Chorvachilik mollarining tarkibi va chorva mollari bosh soni ko‘rsatkichlarini statistik baholash</i>	<i>17</i>
1.3	Chorvachilik sohasini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish	24
	1-bob bo‘yicha xulosa	27
II BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHNI STATISTIK TAHLILI	29
2.1	Mamlakatimizda chorvachilik sohasining rivojlanish holatini statistik tahlili	29
2.2	Chorvachilik mahsuloti va mahsuldorligining statistik tahlili	42
	2-bob bo‘yicha xulosa	51
III BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	52
3.1	Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni prognozlashtirish	52
3.2	Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari	71
	3-bob bo‘yicha xulosa	80
	XULOSA VA TAKLIFLAR	82
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	85

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Chorvachilikni yanada rivojlantirish, chorvachilik xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini yanada ko'paytirish, shuningdek, aholining yirik chorvachilik xo'jaliklari va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati asosida o'z xonadonlarida chorva mollarini boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo'lgan talabini qondirish va yetishtirilgan chorva mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish talab etilmoqda.

Aholining xavfsiz va arzon oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish bilan birgalikda atrof-muhitni muhofaza qilgan holda chorvachilikning barqaror va inklyuziv rivojlanishi Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga salmoqli hissa qo'shmoqda. O'zbekistonda chorvachilik tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi bozorlarda sotish uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini keng joriy etish borasida ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi (8.02.2022 yildagi PQ-121-son) va "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (03.03.2021 yildagi PQ-5017-son) qarorlari qabul qilinganligi ham shundan dalolat beradi.

Mazkur mavzu doirasida qayd etilgan vazifalarni o'rganish va chuqur tahlil qilish asosida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni statistik o'rganishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro Tadqiqotchilar va Tashkilotlar FAO (BMT Qishloq xo'jaligi tashkiloti) mutaxassislaridan John Smith, Maria Ivanova, Lee Joon, Li Wei, Dr. Ivan Petrov, John Smith (FAO), Dr.